

RANGLARNING FAZOVIIY BIRIKMALARI VA XUSUSIYATLARI

Zarifova Dilfuza Omoq qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Dastgoh va kitob grafikasi” mutaxassisligi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Rang san’ati bu nozik hislarga tayangan jarayonki, unda butun borliq bir nuqtada tutashib, murakkab shakllar va ruhiy kechinmalarning g’ayrioddiy namunasi vujudga keladi. Ushbu maqolada rangtasvirda ranglarning birikmalari, ularning xususiyatlari hamda ranglarning insonga hissiy-emotsional ta’siri haqida ma’lumotlar berishga harakat qildindi.

Kalit so‘zlar: Rang, bo‘yoq, emotsional–hissiy, optik birikma, fazoviy birikma.

АННОТАЦИЯ

Искусство цвета — это чувствительный процесс, в котором все существо соединяется в одной точке, создавая необычный узор сложных форм и духовных переживаний. В данной статье предпринята попытка предоставить информацию о сочетаниях цветов в живописи, их характеристиках, эмоционально-эмоциональном воздействии цветов на человека.

Ключевые слова: Цвет, краска, эмоционально, оптическое сочетание, пространственное сочетание.

ABSTRACT

Color art is a sensitive process in which the whole being connects at one point, creating an unusual pattern of complex forms and spiritual experiences. In this article, an attempt was made to provide information about combinations of colors in painting, their characteristics, and the emotional-emotional impact of colors on a person.

Key words: Color, Paint, emotional, optical combination, spatial combination.

Rangtasvir–tasviriy san’atning shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o‘rinni egallaydi. Biror yuzada bo‘yoqlar vositasida san’at asari rangtasvir deyiladi. Rangtasvir amalda yo‘nalishiga ko‘ra mahobatli, dastgohli, miniatyura, teatr rangtasvir bezagi kabi turlarga bo‘linadi. Rangtasvir yo‘nalishining har biri maxsus xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu – bajarish uslubi, shuningdek badiiy obraz talablariga ham tegishlidir.

Rangtasvir obrazlari nihoyatda jiloli va har biri o'ziga xos Musavvirlar rangtasvir vositalari ko'magida asar yaratadilar va ular har doim chizmatasvir, kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanadilar. Demak, rangtasvirda asosiy ifoda vositasi rang bo'lib qolaveradi. Rangtasvir insonning murakkab aql-zakovatli, tafakkurini, tabiatda sodir bo'lib turadigan katta-kichik o'zgarishlarni, uzluksiz falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarni ta'sirchan ifodalashga qodir. Hodisa, voqea va ko'rinishlar doirasining to'laligi turli yo'nalishdagi janrlar orqali ochib beriladi.

Rang tabiatda mavjud barcha narsalar shakllarini, atrof-muhit go'zalligini, turli kayfiyat va his tuyg'ularini ifodalay oladi. Rangni turlicha idrok qilish mumkin, uning vositasida, fikr yuritish, loyihalash, konstruksiyalash qurish imkoniyatlari mavjud «Rang» va «Bo'yoq» shunchalarini farqlash uchun rangshunoslik asoslarini o'rganmoq zarur. Rangtasvir uchun kerak bo'lgan rangni politrada bo'yoqlarni bir-biriga qorishtirish yo'li bilan tayyorlab olinadi. So'ngra tekislik yuzasida ranglar majmuini uyg'unlashtirgan holda koloritni keltirib chiqaradi. Yagona «Rang» so'zi rangtasvir jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va san'atning bu sohasida asosiy vazifasini bajaradi.

Tasvvur qiling, atrof muhitda barcha ranglar yo'qolib qoladiyu, biz uni oq kulrang ustidan ko'rayotgan bo'laylik qanchalik g'amgin, zurikarli biz ko'nikmagan manzara kelib chiqadi. Shundagina hayotda rangni qanchalik ahamiyatga ega ekanligini payqab qolamiz.

Har bir narsa o'z rangiga ega. Ba'zi narsalarni uning rangi orqali taniymiz. Kattaligi bir xil bo'lgan aylana shaklidagi uchta narsani ko'z oldimizga keltiring. Biz ularni o'ziga hos ranglarga bo'lib olovrang apelsin, qizil pomidor, och yashil olmaga «aylantira» olamiz.

Olamning go'zalligi, buyumlar shakli va jismini, bo'shliq va yorug'likni rang fazilatlarini orqali ko'ramiz. Rang biz kuzatib, his qilgan buyumni asosiy belgilardan biridir. Hayotbaxsh tabiatning rang barang tasirlari o'ziga xos ravishda bizni shod etadi. Yil fasllarini har biriga xos bo'lgan o'z ranglari bor. Bahorning nozik, yozning shirali, kuzning charaqlagan va qishning jarangsiz ranglaridan so'z did bilan tanlov o'tkazishingiz mumkin.

Umuman aytganda manzarani yaratishda ranglarning o'ziga xos xususiyatlari bilishi, ranglarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri aks ettirish rassomning histuyg'ularini, fikrlari va kechinmalarini talqin qilib, yorqin kolorit mujassamligida va rangning ustalik bilan berishda namoyon bo'ladi.

Musavvirlar tasviriy san'at ishlarida va rang uyg'unliklari ustida bosh qotiradilar, shu bilan ular narsa va buyumlar asl ranglarni ramziy yo'nalishlarga qarata oladilar. Tasvirda kolorit uyg'unligiga barcha elementlar, rang kontrastlari va tus jilolari yordamida erishiladi. Amaliy-bezak ishlarni bajarishda tanlangan rang, uning tasviriy

bo'laklari, ritmik joylashuvlari, nimaga mo'ljallanganligi va nimadan yasalishi doimo nazarda tutiladi

Tasviriy san'atda, ayniqsa rangtasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmuni va g'oyasining to'la ochilishiga, uning tomoshabinga emotsional-hissiy ta'sirini kuchaytirishga, shu bilan birgalikda kompazitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Ranglarni birikmalariga keladigan bo'lsak, rangli nurlarning uchchalasini bir joyga yig'ib oq rangga erishamiz. Agar yoritqichga oq qora slayd o'rnatilgan bo'lsa, ularni nurlar yordamida rangli qilishga urinib ko'rish mumkin. Ko'k, yashil va qizilda iborat uch nurni aralashtirish yo'li bilan ko'pdan ko'p rang tuslarini keltirib chiqarish mumkinligiga tajriba o'tkazib ko'rmasdan turib ishonish qiyin, albatta.

Ranglarni optik biriktirishning murakkab moslamalar mavjud.

Ma'lum bir masofada unchalik katta bo'lmagan va bir biriga tegib turgan uchta rang bo'lagi kuzatilganda ranglarning fazoviy birikmalarini ko'rish mumkin. Mazkur mayda bo'lakchalar bir butun bo'lakka birlashib, ular birikuvidan kelib chiqadigan ranglar majmuasi tarkib topadi.

Masofadan ranglarning birlashuvlari insonning ko'z tuzilishida rang ajrata olish hususiyati bilan bog'liq bo'lib. optik birikuv qonuniyatlari asosida sodir bo'ladi. Musavvir har asarini yaratish jaraynida, ranglarni fazoviy birikuvlari nazarda tutmog'i va bu asar albatta, ma'lum bir masofada tomosha qilib, kuzatilishini hisobga olmog'i zarur.

Kattaroq masofada tomosha qilishga mo'ljallangan o'lchami katta tasvirli asarni yaratishda ranglarning fazoda birikuvlarida hosil bo'ladigan tassurotni alohida yodda tutmoq zarur.

Impreksion musavvirlar, Ayniqsa alohida surtmalar texnikasi mayda rangli nuqtalar yordamida tasviriy asar yaratuvchilar, rang tasvirni katta bir yo'nalishiga puantilizm (fransuzcha «puant»-nuqta) so'zidan nomini berganlar. Ma'lum masofadan qaralayotgan tasvirda xilma xil rangli mayda surtmalar, kuzatish jarayonida bir birlariga qo'shib, yaxlit rang bo'lib ko'rinadi.

Musavvir Jakkombo Balla ranglarni birikuvchi davrlarga yoyish ustida qiziqarli tajriba o'tkazdi. U nafaqat rangli. Balki tezkor fotografiya tayyorlashdek murakkab xarakterlardan foydalangan holda shu xarakterlarning o'zlarini birikuvchi davrlarga yoyib chiqdi. Natijada g'aroyib «Bolaxonaga yugurib chiqqan qiz» manzarasi paydo bo'ldi va unga faqatgina uzoqdan qaralganda ranglarni fazoviy optik birikuvlari asosida muallif fikri ochib beriladi.

Rangtasvirda badiiy jarayon birmuncha shiddatli va serharakat kechdi. 1991–2001 yillarda bo'lib o'tgan ko'p sonli ko'rgazmalar shuni tasdiqlaydigan mazkur rang davr rang tasviri uslub va kompozitsion yechimning turli tumanligi bilan alohida ajralib

turadi. Bu esa rang tasvirlarchilarga ijodiy erkinlik shuningdek badiiy tasvirning akslantirishda shakl va vositalarni mustaqil tanlash imkonini yaratuvchi Yangi davrda ko'p jihatdan bog'liqdir. Shuning bilan birgalikda, zamonaviy mavzular, qahramonlar obrazlariga nisbatan kam ahamiyat berilayotganligi xaykaltaroshlar oldiga yanada Yangi muhim vazifalarni qo'yadi.

Oxirgi 10 yillar davomida xorij va Respublikada o'tkazilayotgan ko'p sonli guruhiy va shahsiy ko'rgazmalarning katta qismi an'anaviy tarzda dastgoxli rangtasvir asarlaridan tashkil topgan. Mustaqillik yillarida o'z navbatida ustuvor, yangi rassomlar ijodining xisoboti tarzida uyushtirilgan. Ko'rgazmalar muhim o'rin egalladi. Mamlakatimiz mustaqillik kuniga bag'ishlangan, doimiy o'tkazilib kelayotgan ko'rgazma bu borada eng yetakchi bo'lib keldi. Bu ko'rgazmada respublika miqyosida tasviriy va Amaliy san'atining barcha turlarida yuzaga kelgan yetuk namunali asarlar namoyish etilib, uning asosiy qismini esa rangtasvir asarlari tashkil etadi.

Realistik, akademistik yo'nalishni Mustaqillik yillarida sermahsul ijod qilayotgan an'anaviy tarzda keksa va o'rta avlod rassomlar ijodiga mansub deyish mumkin. Ular orasida O'zbekiston xalq rassomlari va faxriy akademiklar R.Ahmedov, N. Qo'ziboyev, M.Nabiyev, T. Oqanesov, M. Saidov, M. Yo'ldoshev va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Ularning asarlarida bu yo'nalish uchun an'anaviy bo'lgan – tarixiy va janrli kartinalar portret, manzara va natyurmort – janr va mavzular o'z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Badiiy Akademiyasi faoliyatini takomillashtirish To'g'risida qarori Toshkent sh., 2017-yil 1-dekabr, 957-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqi.
3. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. N.Oydinov. Tasviriy san'at tarixi.T.1., "Ijod" 2007.28 b.
5. N. Oydinov O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhlar.-T., "O'qituvchi". 1997.11 b.
6. M.Nabiev. Rangshunoslik. - Toshkent: O'qituvchi, 1984.
7. Mamajonov S. Ranglar va ohanglar. Toshkent, 1978